5 BOB

MAKTAB JARAYONLARI SIFATINI TASHQI BAHOLASH

5.1. Tashqi baholashning maqsad va vazifalari

5.2. Tashqi baholash tashkilotchilari va ishtirokchilari

5.3. Tashqi baholashning asosiy yo‘nalishlari

5.4. Tashqi baholash obyektlari

Xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimlarida maktablar faoliyati samaradorligini baholashning eng muhim mexanizmlaridan biri bu qoidaga ko‘ra, mustaqil nodavlat tashkilot tomonidan o‘tkaziladigan tashqi baholashdir. Tashqi baholashni amalga oshiruvchi tashkilotning ta’limni boshqarish organlaridan institutsional jihatdan mustaqil bo‘lishi ta’lim siyosatining amalga oshirilishini hamda belgilangan vazifalar bajarilishi natijalarini baholashni bir-biridan ajratish imkonini beradi. Bu esa baholashning xolisligi va obyektivligini ta'minlash imkonini beradi.

Noqulay ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan maktablarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hududiy dasturni amalga oshirish jarayonida maktablar darajasida dastur ijrosi va uning natijalarini tashqi monitoring hamda baholashni amalga oshirish zarur.

Ushbu vazifani dasturning hududiy va tuman (shahar) darajasidagi kuratorlari jamoasi samarali amalga oshirishi mumkin. Shuningdek, maktablarning o‘zaro ekspert baholashini tashkil etish ham samarali yondashuvlardan biridir. Bunga “Network of Excellence” loyihasi tajribasini misol qilib keltirish mumkin [31].

Bunday yondashuvda loyiha doirasida murakkab ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan maktablar bilan hamkorlik qilayotgan yetakchi maktablarning rahbarlari hamda tajribali o‘qituvchilari tashqi ekspert sifatida jalb etilishi mumkin.

Quyida tashqi baholashning asosiy yo‘nalishlari, mazmuni va shakllari bilan tanishib chiqamiz, uni kim va qanday o‘tkazishi mumkinligini ko‘rib chiqamiz.

5.1. TASHQI BAHOLASHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

TASHQI BAHOLASH UCHTA MUHIM SAVOLGA JAVOB BERISHI KERAK:

1. Maktab nimani ayniqsa yaxshi bajarmoqda?
2. U nimani yaxshilashi mumkin?
3. Uning tajribasi loyihaning boshqa ishtirokchilari uchun qanday foydali bo‘lishi mumkin?

Tashqi baholashning vazifalari quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilash bo‘yicha maktab faoliyatini mustaqil baholashdan o‘tkazish;

– ota-onalar, maktab xodimlari, mahalliy hamjamiyat vakillari va ta’limni boshqarish organlarini maktab faoliyati sifati to‘g‘risida xabardor qilish;

– maktabning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali uning faoliyatini yaxshilashga ko‘maklashish.

Tashqi baholashning mazmuni quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

– maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi amalga oshirilishi darajasini baholash;

– maktab faoliyati samaradorligini va ta’lim natijalarini yanada oshirishni rejalashtirish

bo‘yicha tavsiyalar berish.

Tashqi baholash asosida ta’limni boshqarish organlari maktablarni kelgusida qo‘llab-quvvatlashning maqsadga muvofiqligi, zarur bo‘lgan manzilli yordam choralari yoki maktab tajribasidan hududiy dastur uchun eng yaxshi amaliyot namunasi sifatida foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qilishi mumkin.

Avval ta’kidlab o‘tilganidek, ta’lim tizimidagi an’anaviy nazorat jarayonlari bilan solishtirilganda tashqi baholashning asosiy afzalligi shundaki, u maktablar manfaatlarini ko‘zlab o‘tkaziladi va ularning o‘z faoliyatidagi eng muhim sohalarda yanada samaraliroq bo‘lishiga, ya’ni maktab jarayonlari sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu maqsadga maktabning asosiy jarayonlari uchun aniq sifat standartlarini belgilash, maktabning eng kuchli tomonlarini hamda yaxshilanishni talab qiladigan sohalarni aniqlash orqali erishiladi. Yakuniy natijalar bo‘yicha yaxshilanishlar uchun aynan qaysi yo‘nalishlarda asosiy e’tiborni qaratish zarurligi yuzasidan tavsiyalar shakllantiriladi, o‘tkazilgan baholash natijalari esa maktab jamoasi bilan birgalikda muhokama qilinadi. Baholash maktabning o‘zi tomonidan o‘z-o‘zini baholash o‘tkazish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarga qaratiladi. Ota-onalar va o‘quvchilarning fikrlari ham albatta aniqlanadi va hisobga olinadi.

5.2. TASHQI BAHOLASH TASHKILOTCHILARI VA ISHTIROKCHILARI

Shunday qilib, tashqi baholash muhim ahamiyatga ega, chunki u maktabda kechayotgan jarayonlarni yanada xolis baholash hamda ularga tashqi nuqtayi nazardan yondashish imkonini beradi.

Buning uchun murakkab ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan maktablarni qo‘llab-quvvatlash loyihasining tashkiliy tuzilmasiga qo‘yiladigan talablarni hisobga olish zarur. Umumiy tavsiyalarga ko‘ra, hududiy hamda tuman (shahar) darajasida loyiha jamoalari shakllantiriladi va koordinatorlar tayinlanadi. Odatda, ushbu jamoa a’zolari maxsus o‘quv kurslarida ishtirok etib, loyihaning maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar, monitoring hamda baholash usullari va vositalari bilan tanishadilar. Eng muhimi, ular maktablar bilan nazorat qiluvchi organ sifatida emas, balki maslahat va amaliy yordam ko‘rsatuvchi hamkor sifatida faoliyat olib boradilar.

Ularning salohiyati tashqi baholashni tashkil etish va o‘tkazish uchun ishlatilishi mumkin. Aniqrog‘i, tashkil etish uchun, chunki baholash jarayonlarini bevosita o‘tkazishga ekspert guruhlarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Ekspert guruhlarining a’zolari, avval ta’kidlab o‘tilganidek, qo‘llab-quvvatlash dasturlariga kiritilgan maktablar boshqaruv jamoalarining vakillari (hatto maktab hozircha o‘zgarishlarning ijobiy dinamikasini ko‘rsatmayotgan bo‘lsa ham) va hududiy ta’lim tizimidagi yetakchi maktablarning (loyiha maktablarining hamkorlari bo‘lgan maktablarning) vakillari bo‘lishi mumkin.

Tashqi baholashni o‘tkazish jarayonlarida ishtirok etish ekspertlarning kasbiy rivojlanish elementi sifatida qaralishi mumkin, ayniqsa, ish boshlanishidan oldin ularni o‘qitish tashkil etilgan bo‘lsa. O‘zaro ekspertiza sifatida rasmiylashtirilgan ushbu jarayon salbiy qabul qilish to‘siqlarini olib tashlaydi, chunki bugungi ekspertlarning o‘zlari ertaga baholash obyektiga aylanadilar.

Maktablarni tashqi baholashni tashkil etish vazifasi hududiy hamda tuman (shahar) darajasidagi qo‘llab-quvvatlash dasturlarida nazarda tutilishi lozim. Ushbu jarayonni bevosita tashkil etish tuman (shahar) darajasidagi loyiha koordinatorlari zimmasiga yuklanadi. Buning uchun loyiha koordinatori ekspertlar guruhini shakllantiradi. Guruh tarkibiga loyiha jamoasi a’zolari, maktab rahbarlari va pedagoglar kiritiladi hamda zarur hollarda ota-onalar, ommaviy axborot vositalari va mahalliy hamjamiyat vakillari ham jalb etilishi mumkin. Shuningdek, ekspertlar uchun maxsus o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etiladi. Ekspertlarni tayyorlashni loyiha seminari shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq. Seminar davomida baholash mezonlari, baholashni o‘tkazish tartibi, har bir ishtirokchining huquq va majburiyatlari, shuningdek, yakuniy hisobotni tayyorlash talablari ishlab chiqiladi. Hududiy hamda tuman (shahar) darajasida ekspertlar guruhlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish hamda rag‘batlantirish tartibini belgilovchi zarur normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

Ta’kidlash joizki, tashqi baholash maktab tomonidan ishlab chiqilgan va samarali ish rejimiga o‘tish rejasida ko‘rsatilgan mezonlar asosida o‘tkaziladi, ekspertlar esa 2-bobda tavsiflangan maktabni o‘z-o‘zini tekshirish vositalaridan (so‘rovnomalar, shakl shablonlari va h.k.) to‘liq foydalanishlari mumkin.

Tashqi baholashni maktablarni qo‘llab-quvvatlash dasturining har bir bosqichi yakunida, biroq yiliga bir martadan ko‘p bo‘lmagan holda o‘tkazish maqsadga muvofiq. Faoliyati yuqori baholangan maktablar keyingi yillarda kamroq, muammolari saqlanib qolayotgan maktablar esa zaruratga qarab tez-tez tashqi baholashdan o‘tkazilishi mumkin. Tashqi baholash yakunlari bo‘yicha loyiha jamoasi ekspertlar bilan hamkorlikda hisobot tayyorlaydi. Ushbu hisobot maktabga taqdim etiladi hamda mahalliy ta’limni boshqarish organlariga yuboriladi. Maktab undan o‘zining yillik ommaviy hisobotini tayyorlashda foydalanishi mumkin. Tashqi baholash jarayonida aniqlangan ilg‘or tajribalar umumlashtirilib, barcha maktablar foydalanishi mumkin bo‘lgan eng yaxshi amaliyotlar bazasiga kiritiladi.

Albatta, sifatli tashqi baholashni amalga oshirish uchun ekspertlar tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lishi zarur. Shu maqsadda ular baholash jarayonlarida ishtirok etishdan oldin maxsus o‘quv kurslarida qatnashishlari hamda loyihada muvaffaqiyatli ishtirok etayotgan maktablar faoliyati bilan yaqindan tanishishlari tavsiya etiladi.

Bunday tashriflarni **“Yetakchilikni rivojlantirish kunlari”** deb nomlash mumkin. Har bir bunday tadbir turli maktablardan tashrif buyurgan 3–5 ta boshqaruv jamoasining tajriba almashish maydoni hisoblanadi. Uning doirasida ishtirokchilar darslarni kuzatish, o‘qituvchilar va maktab rahbariyati vakillari bilan muloqot qilish, umumiy muammolarni muhokama etish hamda ilg‘or tajribalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

5.3. TASHQI BAHOLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Tashqi baholash ham, o‘z-o‘zini tekshirish kabi, maktab faoliyatining (maktab jarayonlarining) ta’lim natijalarini yaxshilash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi tomonlariga e’tibor qaratadi:

1. O‘quvchilarning o‘quv natijalari.

Ta’lim natijalari eng past bo‘lgan o‘quvchilar guruhlarining rivojlanish dinamikasi hamda turli o‘quvchilar guruhlari o‘rtasidagi ta’lim natijalari tafovutlarini qisqartirishga alohida e’tibor qaratiladi. Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini amalga oshirayotgan maktablarda ekspertlarning asosiy e’tibori dasturda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan sinflar va o‘quvchilar guruhlarining rivojlanish dinamikasini baholashga qaratiladi.

2. O‘qitish sifati.

Baholash o‘quv rejalashtirishni hamda maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini tashkil etishni, baholash va teskari aloqani, shuningdek, o‘quvchilar darslarda va darsdan tashqari faoliyatda o‘qituvchilardan oladigan yordamni qamrab oladi.

3. Maktab muhiti.

O‘quvchilarning ma’naviy va madaniy rivojlanishi, xulq-atvori va xavfsizligi baholanadi, ularning ko‘rsatkichlari sifatida maktabda amal qilayotgan intizom, qoida va normalar, bolalarning maktab tartib-qoidalariga rioya qilishi, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati hamda maktabda ijobiy iqlim qanchalik yaratilganligi, teng imkoniyatlar va hurmat muhiti qay darajada qo‘llab-quvvatlanayotganligi xizmat qiladi.

4. Maktabga rahbarlik qilish va boshqarish sifati.

U birinchi navbatda maktab rahbariyati tomonidan tashkilotni uzluksiz yaxshilab borish faoliyatini tahlil qilish orqali belgilanadi: yuqori kasbiy standartlarni joriy etish, o‘qitish sifatini yaxshilashni tashkil etish va rag‘batlantirish, barcha o‘quvchilarga nisbatan yuqori ishonchni (kutilmalarni) qo‘llab-quvvatlash hamda ularga o‘qishda mavjud bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etishda yordam ko‘rsatish.

To‘rtta asosiy soha bo‘yicha baholarni umumlashtirgan holda, tashqi baholash maktab faoliyatining umumiy samaradorligi va uning samarali ish rejimiga o‘tish dasturi amalga oshirilishi darajasi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Baholash jarayonlari davomida ekspertlar maktab ma’muriyati va pedagoglari, shuningdek, maktab o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakillari bilan yaqin hamkorlikka kirishadilar. Mustaqil ekspertlar uchun ota-onalar va o‘quvchilarning nuqtai nazari muhim axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ekspertlar mavjud hujjatlar, maktab o‘z-o‘zini diagnostika qilish ma’lumotlari va axborotlaridan maksimal darajada unumli foydalanadilar hamda imkon qadar maktabga qo‘shimcha yuklama tushishining oldini oladilar. Ular asosli dalillarga tayangan holda aniq va

tushunarli baholar hamda xulosalar chiqaradilar.

Ekspertlar maktabni baholashda qo‘llaydigan mezon va jarayonlar maktab rahbariyati hamda xodimlari uchun tushunarli va oldindan ma’lum bo‘lishi kerak.

Ekspertiza boshlanishidan oldin maktabdan quyidagi ma’lumotlarni olish maqsadga muvofiqdir:

– maktabning o‘z-o‘zini baholashi yoki shunga o‘xshash jarayonlar haqida;

– tekshirish o‘tkazilayotgan vaqtda amal qilayotgan, maktabni rivojlantirish strategiyasini o‘z ichiga olgan maktab ish sifatini yaxshilash rejasi (rivojlanish rejasi) haqida;

– maktabning shtat jadvali va dars jadvali haqida;

– o‘quvchilarning maktabdan chetlashtirilishi, intizom buzilishlari haqida;

– xulq-atvorida og‘ishlar bo‘lgan, turli xil hisoblarda turadigan o‘quvchilar haqida;

– ijtimoiy xizmatlar hisobida turadigan o‘quvchilar va oilalar haqida;

– barcha o‘quvchilar guruhlari uchun darslarga qatnashish ko‘rsatkichlari (davomat) haqida;

– o‘qitish sifatini maktab ichki baholash tizimi haqida;

– o‘qituvchilarga rag‘batlantiruvchi ustamalarni tayinlash haqida;

– maktab boshqaruv kengashi yoki uning muqobil organlari faoliyati haqida;

– ta’lim sifatining hududiy yoki munitsipal monitoringi ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan holda, maktab faoliyati sifatini tashqi baholashning barcha shakllari haqida.

Muhimi, ekspertlar ta’lim natijalariga oid ma’lumotlarni tahlil qilish bilan cheklanmaydilar. Ular o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalaridagi rivojlanish dinamikasini baholash maqsadida o‘quvchilar ishlarini ham tahlil qiladilar. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini, o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlarini baholash hamda darslarning odatda qanday tashkil etilishi haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilish uchun ular bilan suhbat o‘tkazadilar.

EKSPERTLAR MA’LUMOTLARNI TO‘PLASH UCHUN TURLI XIL USUL VA VOSITALARDAN FOYDALANADILAR:

1. Darslarni kuzatish. Ekspertlar turli fanlar, ta’lim bosqichlari va o‘quvchilarning turli guruhlari bo‘yicha darslarga kirishga harakat qiladilar. Ular darslardan so‘ng o‘qituvchilarga darsda namoyon bo‘lgan kasbiy yutuqlari va muammolari, shuningdek, darsdagi muhit, bolalarning o‘quv faoliyati va shu kabilar bo‘yicha teskari aloqa beradilar. Bu maxfiy tarzda yoki darslari kuzatilgan o‘qituvchilarning kichik guruhlarida amalga oshiriladi. Muhokama markazida maktabning samarali ish rejimiga o‘tish dasturida belgilangan kompetensiyalar va kasbiy rivojlanish vazifalari turadi.

Darslarga kirishni ekspert guruhi a’zolari va maktab ma’muriyati hamkorlikda amalga oshirishlari mumkin. Ular birgalikda o‘qituvchilar uchun tavsiyalar hamda darslarni kuzatish yakunlari bo‘yicha maktab ma’muriyati o‘qituvchilar oldiga qo‘yadigan kasbiy rivojlanish

vazifalarini ishlab chiqishlari mumkin. Tashqi baholashni o‘tkazishdan maqsad maktabning kuchli tomonlari va yutuqlarini aniqlash bo‘lganligi sababli, darslarga kirishda ekspert-o‘qituvchilar ham ishtirok etishlari mumkin, ular shu tariqa hamkasblarining tajribasi bilan tanishadilar va o‘z kasbiy kompetensiyalarini oshiradilar.

2. O‘quvchilar bilan muloqot qilish. Ekspertlar o‘quvchilarni turli maktab vaziyatlarida: darslarda, tanaffuslarda va kunning ikkinchi yarmida kuzatishga hamda ular bilan muloqot qilishga harakat qiladilar.

3. O‘zlashtirishga oid ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish. Ekspertlar maktab hamda boshqa manbalar taqdim etgan o‘quv natijalariga oid turli ma’lumotlarni to‘playdilar va tahlil qiladilar. Ta’lim natijalaridan tashqari, ular o‘quvchilarning ta’limdagi rivojlanish dinamikasi, xulq-atvori, darslarga qatnashishi, maktabni tark etish holatlari hamda turli o‘quvchilar guruhlari ta’lim natijalari o‘rtasidagi tafovutlarga oid ma’lumotlarni ham baholaydilar. Shuningdek, maktabda ta’lim natijalarini baholash tizimi qanday tashkil etilganligi ham tahlil qilinadi. Xususan, baholashning muntazamligi, o‘qituvchilar foydalanayotgan baholash vositalari, sinflar, o‘quvchilar guruhlari va alohida o‘quvchilar kesimida ta’lim natijalari monitoringi qanday yo‘lga qo‘yilgani o‘rganiladi. Bundan tashqari, baholash tizimi faqat ta’lim natijalarini emas, balki o‘quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini, o‘qitish sifatini hamda o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan baholash vositalarining samaradorligini qay darajada qamrab olishi ham baholanadi.

4. Ota-onalar, pedagoglar, xodimlar va maktab boshqaruv kengashi a’zolari, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslar bilan uchrashuvlar. Ushbu uchrashuvlar rasmiy va norasmiy bo‘lishi mumkin hamda direktor va maktab ma’muriyati ishtirokisiz o‘tkaziladi.

5. Maktab direktori bilan uchrashuvlar. Ekspertlar maktab direktori bilan uchrashib, tashqi baholash rejasini, maktab faoliyatini baholash natijalarini (o‘qitish sifati, o‘quvchilarning ta’lim natijalari va maktabdagi baholash tizimi), shuningdek, dasturni amalga oshirish jarayonida erishilgan natijalar hamda o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini muhokama qiladilar. Bunday uchrashuvlar tashqi baholash boshlanishidan oldin, birinchi ish kuni yakunida hamda ekspertlar faoliyati yakunida ikkinchi ish kunining oxirida o‘tkaziladi.

6. Jamoa bilan yakuniy uchrashuv va teskari aloqa. Ekspertlar guruhi rahbari maktab ma’muriyati, pedagogik jamoa, maktab boshqaruv kengashi a’zolari hamda muassis vakillariga maktab faoliyatini yakuniy baholash natijalari bayon etilgan yozma hisobotni taqdim etadi.

Tashqi baholash yakunlari bo‘yicha tayyorlanadigan yakuniy xulosa quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

– olingan ma’lumotlar asosida maktab faoliyatining holatini baholash. Ushbu ma’lumotlar maktabning dastlabki holati (masalan, loyihaga kirgan paytidagi holati) bilan solishtirilganda o‘sish (yoki uning yo‘qligi) ko‘rsatkichlari bo‘lib ham xizmat qiladi;

– dasturni amalga oshirish davomida maktab tomonidan ko‘rsatilayotgan o‘sish darajasini aniqlash;

– maktab sezilarli yaxshilanishlarga erishgan sohalarni ajratib ko‘rsatish (ularning tavsifi loyiha maktablarining eng yaxshi tajribalari bankiga kiritiladi);

– pedagoglar va maktab ma’muriyati faoliyatida yaxshilanishni talab qiladigan sohalarni ajratib ko‘rsatish;

– dasturni amalga oshirish bo‘yicha keyingi qadamlarga oid tavsiyalar.

Oxirgi bandni prinsipial jihatdan muhim deb ajratib ko‘rsatish lozim. ***Maktabning samarali ish rejimiga o‘tish dasturini amalga oshirish bo‘yicha kelgusidagi harakatlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish tashqi baholashning bosh maqsadi bo‘lib, maktab faoliyatining asosiy sohalarini tizimli tahlil qilish ham aynan shu maqsad yo‘lida amalga oshiriladi.***

Ekspertlar tomonidan tuzilgan va ish yakunlangandan so‘ng maktabga taqdim etilgan qisqa tavsiyalardan keyin, maktabga loyihaning munitsipal jamoasi tomonidan tayyorlangan batafsil yozma hisobot va kengaytirilgan tavsiyalar, jumladan, maktabning samarali ish rejimiga o‘tish dasturiga yoki uning alohida indikatorlariga ehtimoliy tuzatishlar kiritish bo‘yicha takliflar yuborilishi kerak.

Ekspert guruhining tavsiflangan faoliyati, mohiyatan, bir maktab boshqaruv jamoasi va yetakchi pedagoglarining boshqa maktabga tashrifidan iboratdir. Maktablararo hamkorlik murakkab ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatayotgan maktablarda ta’lim natijalarini yaxshilashga qaratilgan hududiy loyihalarning yetakchi tendensiyalaridan biridir. Biroq, yaqin davrgacha maktablarning bir-biriga tashrif buyurishidan asosiy maqsad metodik yordam ko‘rsatish bo‘lgan bo‘lsa, hamkorlik esa yetakchi maktab hamda hududiy qo‘llab-quvvatlash dasturiga kiritilgan maktab o‘rtasida amalga oshirilar edi. Tashqi baholashning tashkil etilishi murakkab sharoitlarda faoliyat ko‘rsatayotgan maktablarning o‘zaro hamkorligini kengaytirish, shunga o‘xshash maktablardagi eng yaxshi tajribalarni, metodik va boshqaruvga oid topilmalarni aniqlash imkonini beradi. Bizningcha, bunday amaliyot loyihaning maktablarda ommalashishi va ildiz otishi uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega.

5.4. TASHQI BAHOLASH OBYEKTLARI

1. TA’LIM NATIJALARI

Baholash jarayonida barcha ta’lim bosqichlari va yosh guruhlariga mansub o‘quvchilarning ta’lim natijalari o‘xshash sharoitlarda faoliyat yuritayotgan maktablardagi shu toifadagi o‘quvchilarning natijalari bilan taqqoslanadi. Agar ekspertlar bir xil yosh guruhidagi o‘quvchilarning sinfdan sinfga o‘tish jarayonidagi rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lsalar, baholash yanada aniq va ishonchli bo‘ladi. Shuningdek, maktabning joriy natijalari uning avvalgi yillardagi natijalari bilan taqqoslanib tahlil qilinadi.

Maktab o‘quvchilarining davlat imtihonlari natijalari o‘xshash ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan maktablar o‘quvchilarining natijalari, shuningdek, tuman (shahar) va hudud (viloyat) bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslangan holda baholanadi.

Ta’lim natijalari to‘g‘risidagi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

– maktab statistikasi;

– Tuman (shahar) va hududiy ta’lim sifatini baholash xizmatlarining ma’lumotlari;

– tekshiruv a’zolari tomonidan darslarda olib borilgan kuzatishlar;

– tekshiruv davomida o‘quvchilar ishlarining o‘tkazilgan tahlili;

– o‘quvchilar bilan suhbatlar jarayonida olingan ma’lumotlar.

Alohida e’tibor talab qiladigan o‘quvchilar guruhlarining ta’lim natijalari va rivojlanish dinamikasini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega:

– ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan bo‘lgan o‘quvchilar;

– o‘zlashtirishi past (orqada qolayotgan) o‘quvchilar;

– iqtidorli o‘quvchilar;

– alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar.

Ekspertlar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim natijalaridagi ortda qolish darajasi qanchalik kamayayotganini, ta’lim natijalari past bo‘lgan hamda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarga qanday qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilayotganini, shuningdek, iqtidorli o‘quvchilarga o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratilganini (jumladan, murakkabroq o‘quv dasturlari asosida ta’lim olish va qo‘shimcha yordamdan foydalanish imkoniyatlari mavjudligini) baholaydilar.

2. PEDAGOGIK YETAKCHILIK VA MAKTAB BOSHQARUVI SAMARADORLIGI

Ushbu sohani baholashda ekspertlar quyidagi savollar bo‘yicha o‘z xulosalarini berishlari kerak:

– Ma’muriyat maktabning vazifalari va ta’lim siyosatini qanday ko‘rmoqda hamda ushbu qarashlarini maktab xodimlari, ota-onalar va o‘quvchilarga qanday yetkazmoqda?

– Ma’muriyat maktabda yuqori ishonchni (kutilmalarni) qanchalik qo‘llab-quvvatlamoqda, bunda o‘quvchilarning barcha sohalardagi yutuqlari va muvaffaqiyatga intilishi maktab uchun hayotiy muhim deb qaraladimi?

– Maktab madaniyatida o‘quvchilar va xodimlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan xulq-atvori qanchalik qo‘llab-quvvatlanadi, o‘zaro hurmat odob-axloq me’yori hisoblanadimi?

– Maktabning o‘z-o‘zini baholashi qanchalik aniq va sinchiklab o‘tkazilmoqda hamda maktab ish sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan rejalashtirish qanday qurilmoqda?

– Maktabning ta’lim dasturi qanchalik muvozanatlashgan, dasturning tayanch qismi badiiy, ijodiy, sport mashg‘ulotlarini o‘z ichiga olgan boy va mazmunli darsdan tashqari faoliyat bilan qanchalik qo‘llab-quvvatlanmoqda?

– Ma’muriyat o‘qitish, baholash va o‘quvchilarning o‘quv faoliyati sifatini yaxshilashni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘rayotgan choralar qanchalik samarali va u buning uchun qanday javobgarlikni zimmasiga oladi?

– Ma’muriyat ota-onalar bilan qanchalik muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqda hamda ularni va boshqa manfaatdor shaxslarni maktabning har bir o‘quvchisini qo‘llab-quvvatlashga

qanchalik jalb etmoqda?

– Ma’muriyat barcha o‘quvchi guruhlari uchun o‘qitish yuqori darajada amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida eng professional va motivatsiyaga ega xodimlarni maktabga jalb qilishni qanday ta’minlamoqda? Ma’muriyat buning uchun qanday javobgarlikni zimmasiga oladi?

– O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ularning mehnat faoliyatining barcha bosqichlarida, jumladan, yetakchilik salohiyatini oshirishni ham qamrab olgan holda qanchalik samarali tashkil etilgan? Maktabda eng muvaffaqiyatli amaliyotlar qanday aniqlanadi va ommalashtiriladi?

– Ma’muriyat qo‘shimcha moliyalashtirishdan qanchalik samarali foydalanmoqda va buning uchun qanday javobgarlikni zimmasiga oladi?

– Maktabda boshqaruv kengashi yoki uning muqobil organlari qanchalik faol ish olib bormoqda va u (ular) o‘z zimmasiga qanday boshqaruv funksiyalarini oladi?

– Maktabda barcha o‘quvchi guruhlari uchun hamda boshqa madaniyatga mansub bo‘lgan o‘quvchilar va xodimlar uchun tenglik qanday qo‘llab-quvvatlanadi?

Mahalliy va / yoki hududiy ta’limni boshqarish organlaridan qo‘shimcha yordam olayotgan maktablarda ekspertlar rahbariyat maktab ish sifatini yaxshilashni ta’minlash uchun ushbu ko‘makdan qanday foydalanayotganini baholashlari kerak.

Ekspertlar ma’lumotlarni ma’muriyat (va maktab boshqaruv kengashi a’zolari) bilan o‘tkazilgan suhbatlardan hamda ularning faoliyatini bevosita kuzatish orqali oladilar. Bundan tashqari, ekspertlar maktab hujjatlarini tahlil qilishlari mumkin. Maktab ma’muriyati qanday muhit va madaniyatni qaror toptirayotgani haqida xodimlar va ota-onalar ham foydali ma’lumotlarni berishadi.

Ma’lumot to‘plash uchun ekspertlar xodimlar o‘rtasida qo‘shimcha so‘rovnomalar (jumladan, yozma ravishda) o‘tkazishlari yoki maktabning o‘zi pedagoglar va ota-onalarning fikrlarini o‘rganish uchun muntazam ravishda to‘playdigan ma’lumotlaridan foydalanishlari mumkin (masalan, ma’muriyat o‘qituvchilarga o‘quvchilarning yomon xulq-atvori sababli yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda qanday yordam berayotganligi haqida).

3. O‘QITISH, BAHOLASH VA MAKTAB O‘QUVCHILARINING O‘QUV FAOLIYATI SIFATI

Shuni ta’kidlash joizki, ekspertlar darslarni kuzatish jarayonida alohida o‘qituvchilarning o‘qitish usullari, baholash faoliyati yoki o‘quvchilarning darsdagi faolligini individual tarzda baholamaydilar. Aksincha, ular o‘qituvchilar va maktabning boshqa mutaxassislari faoliyati o‘quvchilarning ta’limdagi rivojlanish dinamikasini qay darajada ta’minlayotgani haqida umumiy xulosa beradilar.

Ekspertlar quyidagi savollarga javob berish orqali baho beradilar:

– O‘qituvchilar kasbiy standartga va samarali o‘qitish modeliga mos keladigan kasbiy ko‘nikmalarni namoyon etmoqdalarmi?

– O‘qituvchilar fan bo‘yicha chuqur bilimlarga ega ekanliklarini ko‘rsata olyaptilarmi va ularni bolalarga yetkazishga qodirlarmi?

– O‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar maktab o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini tushunishlarini namoyon etmoqdalarmi?

– O‘qituvchilar va maktab xodimlari barcha o‘quvchilarga, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan bo‘lgan hamda iqtidorli o‘quvchilarga nisbatan yuqori kutilmalarni namoyon etadilarmi?

– O‘quvchilarni nimalarni bilishi, tushunishi va bajara olishi bo‘yicha baholashda o‘qituvchilar ularning amaldagi yutuqlarini oldingi natijalari bilan solishtirib, o‘sish (progres)ni kuzatib borishadimi?

– O‘qituvchilar baholash jarayonida olingan ma’lumotlardan o‘z darslarini rejalashtirish uchun foydalanishadimi hamda bolalardan kim o‘sishga erishgani, kim orqada qolayotgani va qanday yordamga muhtojligini aniqlashadimi?

– Bolalar o‘qituvchilardan oladigan (yozma yoki og‘zaki) tavsiyalardan o‘z natijalarini qanday yaxshilashni tushunishadimi?

– Maktab ota-onalarni o‘quv jarayoniga shunday jalb qiladimi, bunda ular bolalar oldida qanday vazifalar turgani va natijalarni yaxshilash uchun nimalar qilish kerakligini tushunishadimi?

– Barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratiladimi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari va maxsus ehtiyojlari hisobga olinadimi?

– Ma’muriyat o‘qituvchilarning o‘qitish sifatini va uning o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini qanday baholaydi?

– Ta’lim mazmuni barcha o‘quvchi guruhlarining imkoniyatlariga mos keladimi, u yetarli darajada murakkab, qiziqarli hamda ularning rivojlanishini rag‘batlantiruvchimi?

– O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan nuqtai nazari qanday, ular undan nimalarni o‘zlashtirmoqda, darslarda qanday tajriba orttirmoqda?

– O‘qituvchilar va qo‘shimcha mutaxassislarning o‘qitish, baholash hamda o‘quvchilar faoliyatiga bo‘lgan nuqtai nazari qanday?

– Ota-onalarning o‘qitish sifati, ta’limning mazmunliligi va ularning farzandlari rivojlanishini qanchalik rag‘batlantirayotganligi, shuningdek, ma’muriyatning qoniqarsiz o‘qitish sifatiga qanchalik tez munosabat bildirishiga oid fikri qanday?

O‘qitish, baholash va o‘quvchilarning o‘quv faoliyati haqidagi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

– darslarni kuzatish;

– o‘quvchilar ishlarini tahlil qilish;

– ma’muriyat o‘qitish sifatining doimiy yaxshilanishini qanday qo‘llab-quvvatlayotganini tahlil qilish.

Tekshiruv a’zolari o‘quvchilar ishlaridan namunalarni o‘rganishda quyidagilarga e’tibor qaratadilar:

– O‘quvchilar bajargan ishlar ularning topshiriqlarni qay darajada puxta bajarayotgani, o‘qishga qiziqish bilan yondashayotgani hamda ta’limdagi rivojlanish dinamikasi kuzatilayotganini qay darajada ko‘rsatadi?

– O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari qanchalik yaxshilanmoqda, ularning fanni tushunish darajasi rivojlanmoqdami?

– Topshiriqlarning murakkablik darajasi qanchalik yuqori, ular o‘quvchilardan harakat talab qiladimi, ularning rivojlanishiga imkon beradimi yoki o‘ta oddiymi? Oxirgi holatga barcha ishlarning “birinchi urinishdayoq” mukammal bajarilganligi ishora qilishi mumkin.

– O‘quvchilar o‘qituvchidan qanday yozma yoki og‘zaki teskari aloqa olmoqdalar, ushbu teskari aloqa o‘quvchilarga ishni yaxshilashga yordam beryaptimi?

Maktabning baholash tizimini tahlil qila turib, ekspertlar quyidagilarni aniqlaydilar:

– O‘qituvchilar o‘quvchilar yil boshida qaysi boshlang‘ich nuqtada turganini aniqlash va keyinchalik ularning qanday rivojlanayotganini hamda o‘quv yili oxirida kutilayotgan natijalarga erishayotganini kuzatib borish uchun baholashdan qanday foydalanishadi;

– O‘quvchilarning ta’lim natijalari qanchalik tizimli ravishda hisobga olinadi va tahlil qilinadi? O‘quvchilarning individual rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar muntazam ko‘rib chiqiladimi? Bir xil yosh guruhidagi, bir sinfdagi hamda turli sinflar va ta’lim bosqichlaridagi o‘quvchilarning ta’lim natijalari o‘zaro taqqoslanadimi?

4. MA’NAVIY VA MADANIY RIVOJLANISH, XULQ-ATVOR VA XAVFSIZLIK

Baholash murakkab ijtimoiy sharoitlarda ishlayotgan maktablarda o‘tkazilishini hisobga olgan holda, o‘quvchilarning shaxsiy (ma’naviy va madaniy) rivojlanishini ta’minlash hamda ularning xavfsizligi va farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish tashkilot samarali faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktab faoliyatining ushbu sohalari alohida baholash obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Ekspertlar davomatni, maktabga kechikishlar sonini va maktab ushbu ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun nimalar qilayotganini tahlil qiladilar. Alohida e’tibor talab qiladigan o‘quvchilar guruhlariga alohida urg‘u beriladi. Davomat va intizom ko‘rsatkichlarining dinamikasi, shuningdek, maktabning samarali ish rejimiga o‘tish dasturida belgilangan o‘quvchilarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga oid o‘zgarishlarning boshqa dalillari (masalan, maktab va o‘quvchilarning ijtimoiy va madaniy loyihalar hamda tanlovlarda ishtirok etishi, maktab o‘quvchilarining mahalliy hamjamiyatga ko‘rsatayotgan yordami) muhim xarakteristika bo‘lib xizmat qiladi.

Ekspertlar maktab hujjatlaridan foydalanadilar, shuningdek, o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ma’muriyat va ota-onalar bilan o‘tkazilgan suhbatlar jarayonida olingan ma’lumotlarga tayanadilar.